

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

2024- YIL YANVAR – DEKABR
(dastlabki ma’lumot)




Asosiy kapitalga investitsiyalar

So'nggi besh yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko'rsatmoqdaki, u deyarli 2,3 barobarga ko'paydi, ayniqsa joriy davrda o'tgan yilga nisbatan 137,6 trln so'mga ko'p investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi o'sish sur'atlari dinamikasi

(2024-yil yanvar-dekabr uchun)



So'nggi besh yil ichida o'sish sur'atlarini ko'radigan bo'lsak, ular o'sib borish tendensiyasiga ega bo'lib, 2021-2022-yillarda 102,9-100,2 % atrofida o'sish kuzatilgan bo'lsa, so'nngi 2 yilda yuqori o'sish sur'atlari 123,4 % va 127,6 % kuzatildi.


Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 493,7 trln so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, 2023-yilga nisbatan 127,6 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning tarkibida 75,9% yoki 374,7 trln so'm investitsiyalar jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,1 % yoki 119,0 trln so'm moliyalashtirildi.

Shuningdek, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi 51,9 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 441,8 trln so'm investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi, % da (2024-yil yanvar-dekabr uchun)



Jami asosiy kapitalga investitsiyalar – 493,7 trln so'm

- Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar 159,6 trln so'm
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 150,5 trln so'm
- Korxonalar mablag'i 87,0 trln so'm
- Aholi mablag'i 32,0 trln so'm
- O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar 23,6 trln so'm
- Respublika budjeti 22,8 trln so'm




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar


2024-yil yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 51,9 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 95,8 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 10,5 % ga yetdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-dekabr uchun)


hajmi, trln so'm



o'sish sur'ati, % da



Yillar bo'yicha markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da






Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

2024-yil yanvar-dekabr oylarida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan hajm 441,8 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 132,8 % ni tashkil etdi. Ularning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi esa 89,5 % ga yetdi.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi va o'sish sur'ati

(2024-yil yanvar-dekabr uchun)



Yillar bo'yicha markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da





Respublika budjeti hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar (2024-yil yanvar-dekabr uchun)


Respublika budjeti hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 22,8 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 4,6 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Surxondaryoda – 1,3 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 8,3 % i, Samarqand – 2,4 trln so'm yoki 8,1 % va Sirdaryo viloyatida – 0,8 trln so'm yoki 7,6 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	6,6
Andijon	4,3
Buxoro	2,2
Jizzax	6,0
Qashqadaryo	6,4
Navoiy	1,8
Namangan	1,9
Samarqand	8,1
Surxondaryo	8,3
Sirdaryo	7,6
Toshkent	3,7
Farg'ona	6,5
Xorazm	6,0
Toshkent sh.	4,7

Hajm dinamikasi, trln so'm



Yuqori ko'rsatkichli hududlar, trln so'm



Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar (2024-yil yanvar-dekabr uchun)


Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 3,6 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 0,7 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Samarqand viloyatida – 0,8 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 2,8 % i, Qashqadaryo – 0,6 trln so'm yoki 2,0 % va Toshkent viloyatida – 1,4 trln so'm yoki 1,9 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	0,0
Andijon	0,5
Buxoro	0,0
Jizzax	0,0
Qashqadaryo	2,0
Navoiy	0,0
Namangan	0,0
Samarqand	2,8
Surxondaryo	0,3
Sirdaryo	0,0
Toshkent	1,9
Farg'ona	0,1
Xorazm	0,0
Toshkent sh.	0,6

Hajm dinamikasi, trln so'm



Yuqori ko'rsatkichli hududlar, trln so'm





**O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar
hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar**
(2024-yil yanvar-dekabr uchun)


O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 23,6 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 4,8 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Qashqadaryo viloyatida – 3,9 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 11,9 % i, Toshkent sh. – 7,0 trln so'm yoki 7,9 % va Navoiy viloyatida – 2,5 trln so'm yoki 7,4 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	5,9
Andijon	1,3
Buxoro	4,4
Jizzax	2,1
Qashqadaryo	11,9
Navoiy	7,4
Namangan	1,2
Samarqand	4,4
Surxondaryo	5,9
Sirdaryo	1,1
Toshkent	3,2
Farg'ona	1,3
Xorazm	3,1
Toshkent sh.	7,9

Hajm dinamikasi, trln so'm



**Yuqori ko'rsatkichli hududlar,
trln so'm**





**Suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar**
(2024-yil yanvar-dekabr uchun)


Suv va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1,9 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 0,4 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona viloyatida – 0,5 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 2,2 % i, Surxondaryo – 0,3 trln so'm yoki 1,9 % va Sirdaryo viloyatida – 0,1 trln so'm yoki 1,0 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	0,4
Andijon	0,3
Buxoro	0,1
Jizzax	0,7
Qashqadaryo	0,1
Navoiy	0,0
Namangan	0,0
Samarqand	0,0
Surxondaryo	1,9
Sirdaryo	1,0
Toshkent	0,4
Farg'ona	2,2
Xorazm	1,0
Toshkent sh.	0,0

Hajm dinamikasi, trln so'm



**Yuqori ko'rsatkichli hududlar,
trln so'm**





Korxonalar o'z mablag'i hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar

(2024-yil yanvar-dekabr uchun)


Korxonalar o'z mablag'i hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 87,0 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 17,6 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida – 35,5 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 40,2 % i, Samarqand – 9,0 trln so'm yoki 30,5 % va Farg'ona viloyatida – 4,1 trln so'm yoki 18,1 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	12,9
Andijon	10,5
Buxoro	7,8
Jizzax	11,6
Qashqadaryo	9,9
Navoiy	9,7
Namangan	9,4
Samarqand	30,5
Surxondaryo	6,9
Sirdaryo	13,9
Toshkent	14,1
Farg'ona	18,1
Xorazm	13,2
Toshkent sh.	40,2

Hajm dinamikasi, trln so'm



Yuqori ko'rsatkichli hududlar, trln so'm





**Tijorat bank krediti va boshqa qarz mablag'lari hisobidan
asosiy kapitalga investitsiyalar**
(2024-yil yanvar-dekabr uchun)


Tijorat bank krediti va boshqa qarz mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 12,7 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 2,6 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahrida – 5,4 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 6,1 % i, Farg'ona – 1,0 trln so'm yoki 4,6 % va Samarqand viloyatida – 0,9 trln so'm yoki 3,0 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	2,9
Andijon	1,4
Buxoro	1,0
Jizzax	1,6
Qashqadaryo	0,9
Navoiy	1,0
Namangan	0,8
Samarqand	3,0
Surxondaryo	2,1
Sirdaryo	2,1
Toshkent	2,5
Farg'ona	4,6
Xorazm	1,5
Toshkent sh.	6,1

Hajm dinamikasi, trln so'm



**Yuqori ko'rsatkichli hududlar,
trln so'm**





To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan
asosiy kapitalga investitsiyalar
(2024-yil yanvar-dekabr uchun)


To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 310,2 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 62,8 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Namangan viloyatida – 43,3 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 81,2 % i, Buxoro – 38,2 trln so'm yoki 78,1 % va Andijon viloyatida – 20,9 trln so'm yoki 74,2 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	64,1
Andijon	74,2
Buxoro	78,1
Jizzax	74,1
Qashqadaryo	60,5
Navoiy	73,7
Namangan	81,2
Samarqand	46,4
Surxondaryo	60,1
Sirdaryo	71,2
Toshkent	67,7
Farg'ona	55,5
Xorazm	56,3
Toshkent sh.	37,6

Hajm dinamikasi, trln so'm



Yuqori ko'rsatkichli hududlar,
trln so'm





Aholi mablag'lari hisobidan asosiy kapitalga investitsiyalar (2024-yil yanvar-dekabr uchun)


Aholi mablag'lari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 32,0 trln so'mni tashkil etdi. Barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmidagi ularning ulushi esa 6,5 % ga yetdi.

Yuqori ko'rsatkichlar Xorazm viloyatida – 2,8 trln so'm yoki hududdagi jami hajmning 18,9 % i, Surxondaryo – 2,2 trln so'm yoki 14,5 % va Farg'ona viloyatida – 2,6 trln so'm yoki 11,7 % kuzatildi.


Hududlar ulushi, % da

Qoraqalpog'iston R.	7,2
Andijon	7,5
Buxoro	6,4
Jizzax	3,9
Qashqadaryo	8,3
Navoiy	6,4
Namangan	5,5
Samarqand	4,8
Surxondaryo	14,5
Sirdaryo	3,1
Toshkent	6,5
Farg'ona	11,7
Xorazm	18,9
Toshkent sh.	2,9

Hajm dinamikasi, trln so'm



Yuqori ko'rsatkichli hududlar, trln so'm




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo'shimcha qiymat solig'ini qo'shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to'lov amalga oshirilgan paytdan qat'i nazar, haqiqatda o'zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 231,4 trln so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 46,9 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 212,8 trln so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,1 %) va boshqa xarajatlarga 49,5 trln so'm (10,0 %) o'zlashtirildi.

Yillar kesimida texnologik tarkib

- mashina, uskuna, inventar
- qurilish-montaj ishlari
- boshqa xarajatlar



jamiga nisbatan % da






Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Xorazm viloyatida kuzatildi – 70,1 % yoki 10,4 trln so'm. Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida mashina va uskuna sotib olishga yo'naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Jizzax viloyatida kuzatilib, 56,9 % ni yoki 13,1 trln so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, jamiga nisbatan % da (2024-yil yanvar-dekabr uchun)



- Qurilish-montaj ishlari
- Mashina, uskuna, inventar
- Boshqa xarajatlar

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi



Joriy hisobot davrida yangi qurilishga yo'naltirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar 309,0 trln so'mga yetdi hamda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 62,6 % ini tashkil etdi.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 115,1 trln so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 23,3 % ini tashkil etdi. Qolgan 14,1 %, ya'ni 69,6 trln so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.

Yillar bo'yicha takror ishlab chiqarish tarkibi

- yangi qurilish
- kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya
- boshqa yo'nalishlar

jamiga nisbatan % da






Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida yangi qurilishning ulushi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Namangan viloyatida kuzatildi – 75,0 % yoki 40,0 trln so‘m. Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida korxonalar va tashkilotlarni kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga yo‘naltirilgan investitsiyalarning eng yuqori ulushi Andijon viloyatida kuzatilib, 41,2 % ni yoki 11,6 trln so‘mni tashkil etdi.


Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, jamiga nisbatan % da (2024-yil yanvar-dekabr uchun)



- Yangi qurilish
- Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya
- Boshqa yo‘nalishlar

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
asosiy kapitalga investitsiyalar, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, % da

- Qishloq xo'jaligi
- Ishlab chiqarish sanoati
- Qurilish
- Axborot va aloqa
- Ta'lim
- Boshqa faoliyat turlari
- Tog'-kon sanoati
- Elektr, gaz bilan ta'minlash
- Tashish va saqlash
- Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar
- Sog'liqni saqlash






O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi


Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

2024- yil yanvar-dekabr oylarida jami 34,9 mlrd dollar xorijiy investitsiya va kreditlar o'zlashtirilgan bo'lsa, ulardan yangi asosiy fondlarni yaratishga qaratilgan asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar 26,4 mlrd dollar yoki 333,8 trln so'mni tashkil etdi.

**Yillar bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar,
hajmi – trln so'mda, o'sish sur'ati – % da**



**Yuqori ulushga ega 8 ta investor-mamlakat bo'yicha asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar, O'zbekiston bo'yicha jami hajmga nisbatan, % da
(2024-yil yanvar-dekabr uchun)**





O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

2024- yil yanvar-dekabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 333,8 trln so'mni hamda 2023-yilga nisbatan 152,1 % ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiya va kreditlar, mlrd so'm (2024-yil yanvar-dekabr uchun)


	To'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'zR kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlanmagan xorijiy investitsiya va kreditlar
O'zbekiston Respublikasi	150 529,8	23 633,1	159 633,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 235,9	1 195,9	10 930,9
Andijon	11 532,0	370,8	9 342,6
Buxoro	22 977,4	2 160,0	15 264,4
Jizzax	10 913,1	480,1	6 175,8
Qashqadaryo	7 208,9	3 947,7	12 751,1
Navoiy	11 019,8	2 506,6	14 068,5
Namangan	17 886,4	645,9	25 426,9
Samarqand	6 384,6	1 304,6	7 376,1
Surxondaryo	5 835,2	907,9	3 344,4
Sirdaryo	5 923,3	116,3	1 873,2
Toshkent	18 647,4	2 297,2	29 084,8
Farg'ona	9 145,8	284,9	3 279,6
Xorazm	2 222,4	460,2	6 102,6
Toshkent sh.	18 597,6	6 954,9	14 612,5

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya
va kreditlar tarkibi, jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, % da**

2024-yil yanvar-dekabr oylarida O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 119,2 trln so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 35,7 % ini tashkil etdi.

Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 65,0 trln so'm yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,5 % i miqdorida qayd etdi.

- Ishlab chiqarish sanoati
- Elektr, gaz bilan ta'minlash
- Tog'-kon sanoati
- Qishloq xo'jaligi
- Suv bilan ta'minlash va kanalizatsiya
- Qurilish
- Tashish va saqlash
- Axborot va aloqa
- Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar
- Boshqa faoliyat turlari





O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish
(2024-yil yanvar-dekabr uchun)

Investorlar – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o'z mablag'lari, qarz mablag'lari yoki jalb qilingan mablag'larni investitsiya ko'rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta'minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

Ishga tushirilgan turar-joylar, mln kv.m	14,8
Ishga tushirilgan umumta'lim maktablari, o'quvchi o'rni	32 810
Kasalxonalar, o'rin	1 710
Ishga tushirilgan poliklinikalar, qatnov	10 735
Ishga, tushirilgan suv tarmoqlari, km	1 418,8
Maktabgacha ta'lim muassasalari, o'rin	3 005
Ishga, tushirilgan gaz tarmoqlari, km	25,3
Litseylar, o'quvchi o'rni	360



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi

Hududlar kesimida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish (2024-yil yanvar-dekabr uchun)

	Turar-joylar, ming kv.m	Ulardan: qishloq joylardan ming kv.m	Suv tarmog'i, km	Gaz tarmog'i, km
O'zbekiston Respublikasi	14 844,2	9 990,2	1 418,8	25,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	864,9	446,4	370,7	1,2
Andijon	1 309,6	901,5	108,8	-
Buxoro	1 475,0	1 098,0	-	-
Jizzax	491,6	237,4	198,8	21,6
Qashqadaryo	1 064,3	548,5	-	-
Navoiy	694,7	562,2	-	-
Namangan	1 466,5	972,2	-	-
Samarqand	408,1	396,1	142,1	-
Surxondaryo	1 278,5	1 127,8	135,7	-
Sirdaryo	132,5	65,4	-	-
Toshkent	1 924,4	1 466,6	-	-
Farg'ona	1 530,9	1 008,5	152,7	2,5
Xorazm	1 303,8	1 159,6	287,0	-
Toshkent sh.	863,5	-	23,0	-

2024-yil yanvar-dekabr oylarida jami 14 844,2 ming kv.m turar-joylar ishga tushirilib, 2023-yilga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda respublika bo'yicha jami 1 418,8 km suv tarmog'i ishga tushirildi, ularning 70,8 % i yoki 1 004,6 km qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

Shuningdek, joriy davrda 25,3 km gaz tarmog'i ishga tushirilib, ulardan 9,0 km qishloq joylar hissasiga to'g'ri keldi.

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Tel.: 71 203-80-00 (1161)